

DOI: 10.5281/zenodo.15772517

Link: <https://zenodo.org/records/15772517>

PROFESSIONA TA'LIM MUASSASALARINI MOLİYALASHTIRISH MASALALARI

Karimov Ruyobbek Itolmosovich

Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta'limni rivojlantirish instituti,

O'quv adabiyotlari xamda me'yoriy hujjatlarni nashr etish bo'limi bosh mutaxassisi

www.ruyobbekk@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola professional ta'lim muassasalarining moliyalashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda asosiy moliyaviy manbalar, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, xalqaro grantlarni jalb qilish va ta'lim tizimining infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: professional ta'lim, moliyalashtirish, davlat byudjeti, xususiy sektor, xalqaro grantlar, davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma.

Kirish

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va mehnat bozorining ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash jarayonida professional ta'lim muassasalari muhim o'rin tutadi. Ushbu muassasalar samarali faoliyat yuritishi uchun barqaror moliyaviy ta'minot talab etiladi. Biroq, moliyalashtirish tizimida bir qator muammolar mavjud bo'lib, bu jarayonni takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada professional ta'lim muassasalarining moliyalashtirish manbalari, duch kelinayotgan muammolar va ularni hal etish yo'llari muhokama qilinadi.

Professional ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbalari

Professional ta'lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishi uchun barqaror va yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'lishi zarur. Ushbu resurslar turli manbalardan shakllanadi va har birining o'ziga xos jihatlari mavjud. Quyida professional ta'lim muassasalarining asosiy moliyalashtirish manbalari batafsil ko'rib chiqiladi.

Davlat byudjeti mablag'lari professional ta'lim muassasalarining eng asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Hukumat ushbu sohani rivojlantirish maqsadida yillik budjetdan muayyan mablag' ajratadi. Davlat tomonidan ajratiladigan subsidiya va grantlar o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani yaxshilash hamda o'qituvchilarni rag'batlantirish uchun yo'naltiriladi. 2022-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda professional ta'limga ajratilgan mablag' umumiy ta'lim byudjetining 15 foizini tashkil etgan.

Xususiy sektor investitsiyalari muhim o'rin tutadi. Korxonalar va sanoat tarmoqlari istiqbolli kadrlar tayyorlash maqsadida professional ta'lim muassasalariga sarmoya kiritadi. Davlat-xususiy sheriklik doirasida sanoat korxonalari hamkorlik qiladi. Germaniyada kasb-hunar ta'limining 50 foizdan ortig'i xususiy sektor tomonidan moliyalashtirilgani, bu esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilganini ko'rsatadi.


Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limda va boshlang'ich professional ta'limda ajratiladigan mablag'lar summolari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi hamda ushbu mablag'lar tarbiyalanuvchilar va ta'lim oluvchilarning o'qish joyidagi ta'lim tashkilotlariga yo'naltiriladi.

Ta'lim tizimini moliyalashtirish mexanizmlari, jalb qilingan mablag'larning manbalari, ularni taqsimlash usullari, boshqaruv organlari, davlat mablag'larini ajratish shartlari va mezonlari bo'yicha farqlanadi, bunda moliyalashtirishning bozor sxemalari va mexanizmlarini qo'llash asos qilib olinadi. Ta'lim tizimini moliyalashtirishning aksariyat modellarida markazlashtirilgan va nomarkazlashtirilgan moliyalashtirish usullari qo'llaniladi. Ta'lim tizimini davlat byudjetidan moliyalashtirish mexanizmi va amaliyotini ishimizning 2-bobida batafsil to'xtalamiz.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli Qaroriga asosan davlat byudjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, byudjet mablag'laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida 2000 yil 1 yanvardan boshlab byudjet tashkilotlari xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashning yangi tartibini joriy etildi.

Qaror bilan barcha byudjet tashkilotlarida Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi. Ta'lim muassasalarida byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari faqat avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lashga, byudjet tashkilotining moddiytexnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga va ijtimoiy rivojlantirish va byudjet tashkilotlarining xodimlarini moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

Ta'lim muassasalarida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik qarz mavjud bo'lsa, Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari tejab qolingan byudjet mablag'lari doirasida ushbu qarzlarni to'lashga (ishlar, xizmatlar tovarlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlar o'rni qoplangandan so'ng) sarflanadi. Agar kreditorlik qarzi byudjet tashkilotining xarajatlari vaqtincha etarli miqdorda mablag' bilan ta'minlanmaganligi munosabati bilan paydo bo'lgan taqdirda, kreditorlik qarzning Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi hisobiga to'langan miqdori joriy moliya yiliga belgilangan xarajatlar limiti doirasida byudjetdan qoplanadi.



1-rasm. Ta'lim tizimini moliyalashtirish manbalari

Xalqaro grantlar va kreditlar professional ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tashkilotlar, donor davlatlar va moliyaviy institutlar ta'lim sifatini oshirish uchun mablag' ajratadi. Masalan, Jahon Banki va Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan ta'lim loyihalari tufayli Markaziy Osiyo mamlakatlarida kasb-hunar ta'limining infratuzilmasi sezilarli darajada yaxshilangan.

To'lov-kontrakt asosida o'qitish professional ta'lim muassasalarining muhim moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Talabalar tomonidan to'lanadigan kontrakt mablag'lari ta'lim jarayonining moliyaviy ta'minotini yaxshilashga xizmat qiladi. Xususan, O'zbekistonda 2023-yilda professional ta'lim muassasalarida kontrakt asosida o'qiyotgan talabalar soni 150 mingdan oshgan.

Homiylilik va xayriya jamg'armalari orqali ham professional ta'limni moliyalashtirish mumkin. Jamoatchilik va nodavlat tashkilotlar tomonidan ajratiladigan mablag'lar ehtiyojmand talabalarga stipendiyalar ajratish, ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash va o'quv jarayonini yaxshilash uchun sarflanadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

“O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz

zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik."

Moliyalashtirishdagi muammolar

Professional ta'lim muassasalarining barqaror moliyaviy ta'minoti dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ushbu jarayonda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular ta'lim tizimining rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Quyida asosiy muammolar tahlil qilinadi.

Davlat mablag'larining cheklanganligi asosiy muammolardan biridir. Byudjetdan ajratiladigan mablag'lar aksariyat hollarda professional ta'lim muassasalarining ehtiyojlarini to'liq qoplamaydi. O'rganilgan statistikaga ko'ra, 2023-yilda professional ta'lim muassasalarining 30 foizdan ortig'ida jihozlash darajasi yetarlicha bo'lmagan.

Xususiy sektor ishtirokining sustligi ham jiddiy muammo sanaladi. Ayrim sanoat korxonalari ta'lim tizimiga yetarlicha sarmoya kiritmasligi natijasida moliyalashtirish hajmi yetarli emas. Natijada, texnologik yangilanish va malakali kadrlar tayyorlash jarayonida qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Hozirda davlat byudjet va mahalliy byudjetlarning xarajatlar qismining o'sishi va daromadlar qismiga kelib tushayotgan tushumlarning bir maromda tushmasligi natijasida faqatgina mahalliy byudjetlarning birinchi ehtiyojli xarajatlari amalga oshirilmoqda. Ta'lim muassasalari, xususan maktab ta'limi muassasalarining texnik jihozlash va binolarini ta'mirlash ishlarida ajratilgan mablag'lar miqdorining kamligi ushbu tadbirlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlay olmayapti.

Shularni inobatga olgan holda maktab ta'limi muassasalarida juda katta imkoniyat mavjud bo'lgani holda o'zlarini maxsus mablag'lar manbalarini yaratishlari kerak. Qo'shimcha yaratilgan manbalardan olingan mablag'lar natijasida, maktab ta'limi muassasalari ayrim xarajat moddalariga byudjetdan ajratilgan mablag'larni etishmaydigan qismini qoplash uchun tadbirlar o'tkazishlari mumkin.

Shuningdek, infratuzilma yetishmovchiligi ham dolzarb muammolardan biridir. O'zbekiston ta'lim muassasalarining 40 foizidan ortig'ida zamonaviy laboratoriyalar va texnik jihozlar yetishmovchiligi kuzatilgan. Ayrim hududiy professional ta'lim muassasalarida esa bino va jihozlarning yaroqsizligi o'quvchilarning sifatli ta'lim olishini qiyinlashtiradi. Shuningdek, internet tarmog'ining cheklanganligi va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatining kamligi ham ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

O'qituvchilarning mehnat sharoitlari ham yaxshilanishga muhtoj. Pedagoglar uchun yetarlicha rag'batlantirish tizimining mavjud emasligi malakali mutaxassislarning boshqa sohalarga o'tishiga sabab bo'lmoqda. O'qituvchilar maoshining pastligi va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining yetarli emasligi ularning ta'lim jarayoniga bo'lgan motivatsiyasini pasaytiradi. Ba'zi ta'lim muassasalarida esa o'qituvchilar malaka oshirish imkoniyatlaridan cheklangan holda qolmoqda.

Barcha ushbu muammolarni hal etish uchun tizimli yondashuv va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish zarur.

Moliyalashtirish tizimini takomillashtirish yo'llari

Mamlakatimizda maktab ta'limi xarajatlarini ixchamlashtirish bo'yicha muttasil ish olib borilmoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun asosan ikkita yo'l tanlangan:

- ta'lim tizimida xususiy muassasalarni rivojlantirishga imkon yaratish;

- davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ta'lim muassasalari tomonidan ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar evaziga (ayrim fanlar buyicha repetitorlik kurslari, bolalarni ma'naviy va jismoniy barkamollikka etkazishga yo'naltirilgan qo'shimcha to'garaklar uchun) mablag'lar jalb etish yoki ularning miqdorini oshirish.

Xususiy ta'lim muassasalari tizimini vujudga keltirish uchun qilingan eng katta qadam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 24 iyundagi 313-sonli «Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil qilish va rivojlantirish to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi bo'ldi. Shu bilan birga, boshqa turdagi nodavlat ta'lim muassasalari tashkil qilinishi bo'yicha ishlarning nisbatan sust olib borilayotganligini ham ta'kidlash o'rinalidir.

Professional ta'lim tizimini barqaror moliyalashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali ta'lim muassasalariga yangi moliyaviy resurslarni jalb qilish mumkin. Xususiy sektorning faolligi ta'lim jarayonining amaliyotga yaqinlashishiga yordam beradi. Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik asosida ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, korxonalar tomonidan homiylik mablag'lari ajratilishini rag'batlantirish lozim. Shu bilan birga, kompaniyalar o'z ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash jarayonida ishtirok etishi uchun soliq imtiyozlari yaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Masalan, Jahon Banki va Yevropa Ittifoqining ta'lim loyihalarini jalb qilish orqali ta'lim tizimini modernizatsiya qilish lozim. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, grant va kredit mablag'larini jalb etish orqali innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Janubiy Koreya va AQSh tajribasidan kelib chiqib, texnologik parklar va ilmiy-tadqiqot markazlarini yaratish xalqaro tajribani joriy qilishga yordam beradi.

Maxsus ta'lim jamg'armalarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu fondlar orqali professional ta'lim muassasalari barqaror moliyalashtirilishi mumkin. Bunday jamg'armalar davlat, xususiy sektor va xalqaro donorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim. Shu orqali nafaqat moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi, balki professional ta'limning innovatsion rivojlanishiga ham zamin yaratiladi.

O'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish, ularning maoshlarini oshirish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. O'qituvchilarning malaka oshirish kurslariga qatnashishi, xorijiy tajriba almashinuv dasturlarida ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Bundan tashqari, pedagoglar uchun grant tizimini yo'lga qo'yish, ilmiy izlanishlarga ko'mak berish va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish ham maqsadga muvofiqdir. Agar o'qituvchilarga rag'batlantiruvchi tizimlar ishlab chiqilsa, ta'lim sifati yanada oshadi va kasb-hunar ta'limi innovatsion rivojlanishga erishadi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24.01.2020, <http://www.press-service.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2010 yil 28 apreldagi “Bir nafar o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan bazaviy me’yorlar va umumta’lim maktablari uchun o‘llaniladigan qo‘shimcha koeffitsientlar tartibi to‘g‘risida”gi №35; va №1-sonli qo‘shma Qarori
4. Jahon Banki hisobotlari, 2022-2023-yillar.
5. Zaripov Khusan Bakhodirovich. Trends in the Development of the Tax System of the Republic of Uzbekistan. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 2022
6. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари. Science and Education, 2022
7. Mirziyoyev, Sh. "O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi." Toshkent, 2023.
8. G.G. Nazarova, N.X.Xaydarov, M.T.Akbarov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. - T.: MChJ “RAM-S”, 2007